



“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami



Digital object
identifier



2024-yil 24-aprel

**"RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY
TIL SIFATIDA O'QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA"**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami

**RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA
O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI
VA XORIJIY TIL SIFATIDA
O'QITISHMASALALARI:
MAHALLIY VA XORIJIY
TAJRIBA**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami

Toshkent, O'zbekiston

2024-yil 24-aprel

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O’ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O’QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba / –Toshkent. – 2024. – 761 b.

Ushbu to‘plamga 2024-yil 24-aprel kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи tomonidan o‘tkazilgan “Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba” mazusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola va tezislar mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’ul.

Mas’ul muharrir

Zilola Salisheva

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar

Safо Matchon,

pedagogika fanlari doktori, professor

Yashnarbek Avlakulov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay’ati

Musajan Tadjiboyev

Aydin Mo’minova

Nazokat Jiyanova

Saida Maksumova

Munira Sharipova

Salima Jumayeva

Mohigul Fozilova

Dilfuza Pusatova

Shohista Zoitova

Maqolalarni to‘plib, nashrga tayyorlovchi

Shaxlo Yuldasheva

Ushbu to‘plam O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kengashining 2024-yil -sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**ONA TILI DARSLARIDA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH
KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O’zbek tilshunosligi kafedrasи o’qituvchisi

shaxnoza1977xon@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada yurtimizda raqamli iqtisodiyot rivoji, ta’lim sohasida o’qitishga zamonaviy yondashuv, ona tili darslarida o’quvchilarni yoshligidan axborotlarni saralashga o’rgatish, internet bilan bog’liq atamalarning talaffuzi va imlosi, ma’nolari bilan tanishish, o’quvchilar ongida raqamlashgan dunyo haqida tasavvur uyg’otish, raqamli dunyoda o’zlikni anglash, va raqamli vositalardan foydalanish ko’nikmalarini shakllantirishga oid fikrlar berilgan.*

***Abstract.** The article deals with the development of the digital economy in our country, a modern approach to teaching in the field of education, teaching students to sort information from a young age in their mother tongue classes, familiarizing with the pronunciation and spelling of terms related to the Internet, their meanings, raising the imagination of the digital world in the minds of students, digital thoughts are given on the formation of the skills to use digital tools and self-awareness in the world.*

Kalit so’zlar: pedagogik texnologiya, raqamlashtirish, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli dunyo, hisbelgi, mediasavodxonlik.

Keywords: pedagogical technology, digitization, social networks, digital world, social media, media literacy.

Bugungi kunda tezkor rivojlanib kelayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy madaniy va boshqa sohalarining asosiy negizi raqamlashtirilgan. Bu esa hozirgi XXI asrning asosiy ko’rinishi desak mubolag’a bo’lmaydi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda ushbu sohani takomillashtirish maqsadida ko’plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Misol tariqasida Prezidentimizning quyidagi fikrlariga nazar solsak “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O’zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur“, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev «Raqamli iqtisodiyotga o’tish» konsepsiyasini ishlab chiqishda axborot xavfsizligiga alohida etibor berish kerak ekanligini ta’kidlab o’tdi.

Dunyo mamlakatlari singari O’zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanib bormoqda. Kundalik hayotimizga axborot-texnologiyalarini tatbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko’plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

¹ President Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 18-dekabr Oliy Majlisga murojaatnomasida

Barcha sohalar singari respublikamizda ta’lim sohasi ham o’ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o’ziga xoslik, eng avvalo, ta’lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya’ni o’zimizning juda boy o’tmishimiz tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o’z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmuniga ega bo’lgan jarayonda yosh avlodni o’qitish baxtiga muyassar bo’ldik. Davrimizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta’lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko’tarishni, har tomonlama puxta bilim olgan, fan va texnika asoslari bilan qurollangan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizning vazifamiz – to’plangan tajriba va ilg’or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o’zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o’rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat’iyat bilan harakat qilishimiz zarur” deb ta’kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat itimoiy tizmining barcha sohalari faol bo’lmoqliklari shart. Taraqqiyot strategiyasida muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e’tibor qaratilib, yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan.

Ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqazo qiladi. O’quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

O’quvchilarni yoshligidan axborotlarni saralashga o’rgatish ham bugunning talabi sanalmoqda. Chunki axborotning oluvchisi, tarqatuvchisi va yaratuvchisi ham aynan siz-u biz tarbiyalayotgan muktab o’quvchisi bo’lishi mumkin. To’g’ri, bugunga qadar axborot va xabarlar rasmiy ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilar edi, ammo hozir bu chegaralanmagan.

Har oyda o’zgarib turgan raqamlar bugungi kunda zarur axborotni keraksizidan ajratish, media orqali savodxonlikka ega bo’lish zaruratini qo’ydi. Raqamli dunyo savodxonligi: raqamli vositalardan foydalanish; raqamli dunyoda o’zlikni anglash; raqamli dunyo huquq va majburiyatlarini tan olish; raqamli vositalar orqali muloqotni yaxshilash; raqamli vositalardan foydalanishda salomatlikni asrash; raqamli dunyoda shaxsning xavfsizligini qo’llash kabi elementlardan iborat.

Milliy o’quv dasturiga o’tish doirasida 6, 7 va 10-sinflar uchun darsliklar tayyorlandi. Maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligining mundarijasiga e’tibor qaratsangiz, odatiy mavzular, masalan, «Fe’l», «Fe’lning shaxs-son, zamon shakllari», «Sifatdosh» o’rniga «Til —muloqot vositasi», «Global isish», «Eksport-import», «Soliqlar», «Raqamlashgan dunyo» kabi mavzularni ko’rishingiz mumkin.

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O’ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O’QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami

Avvalgi ona tili darsliklari tilning tuzilishiga oid tizimli qoidalar va bu qoidalarning yod olinishini ta’minlovchi mashqlardan iborat edi.

6-sinf darsligida “Raqamlashgan dunyo” mavzusi berilgan. Rasmlar asosida quyidagi savollarga javob berish topshirilgan:

1. Yuqoridagi rasmlar asosida “raqamli dunyo” deganda nimani tushunganingiz haqida gapiring.
2. Onlayn ta’limning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. “Onlayn xarid”, “internet do‘kon”, “onlayn bozor” deganda nimalarni tushunasiz? Ularga misollar keltira olasizmi?
4. Onlayn to‘lovdan qachon, qay maqsadda foydalanamiz? Bu bizga nima uchun kerak?
5. Kriptovalyutalar, xususan, bitkoin haqida eshitganmisiz? Nimalarni bilasiz?
6. “Virtual borliq”, “virtual sayohat” deganda nimalarni tushunasiz? Bu sohaning qanday imkoniyatlari bor? Soha kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

Keyingi topshiriqda “Hisbelgi nima?” sarlavhasi ostida qiziqrli ma’lumot berilgan. Telegramdagi “Orif Tolib sahifasi” kanalida “smaylik” so‘ziga o‘zbekcha nom berish haqida so‘rovnoma o’tkazilgan. Obunachilar “kulgich”, “hisbelgi”, “kuldirgich”, “kulinchchoq” so‘zlarini ichidan “hisbelgi” so‘ziga ko‘proq ovoz bergen. Chunki hisbelgilar odamning his-tuyg‘ularini ifodalaydi-da.

Ingliz tilida: “emoji”; Rus tilida: “smaylik”.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning internet olami haqidagi tushunchalarini shakllantiradi hamda o‘z tiliga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydi.

“Raqamli dunyo” matni asosida quyidagi savollar berilgan:

1. Raqamlashtirish deganda nimani tushundingiz? Bu jarayonda nima raqamlashtiriladi? (Bu savol matnda eksplitsit(ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar 1-xatboshida berilgan ma’lumotlarga e’tiborlarini qaratib, o‘z tushunchalarini aytib berishlari lozim. Raqamlashtirish – axborotlarni kompyuter tiliga o‘girish.)

2. Kompyuter, smartfon va televizor kabi yana qanday raqamli texnologiyalarni bilasiz? (O‘quvchilar bu savolga javob berishda raqamli texnologiyalar nima ekanligini tushunib, hayotiy kuzatishlari asosida misollar keltirishlari lozim. Masalan, kirmashina, havosovutgich, telefon, elektromobil va h.k.)

3. Maqolaga ko‘ra, “iPhone” smartfoni ixtiro qilinishi bilan “dunyoning raqamlashishi” tezlashib ketadi. Sizningcha, bu jarayonni yana qanday ixtiolar

tezlashtirib yuborgan? (Bu berilgan ma’lumotlarni qayta ishlab, ma’no chiqarishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar matnning 3-xatboshida berilgan ma’lumotlar orqali qanday ixtiolar nazarda tutilganligini aytib bera olishi lozim. Masalan, “Endi uydan chiqmay poyezdga chipta olish, ovqat buyurtirish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish juda oson bo‘lib qoldi” ushbu ma’lumot orqali “onlayn xarid”, “onlayn bozor” larni shakllanishi hamda ular uchun yaratilgan maxsus raqamli dasturlar yaratilganligini aytish mumkin.)

4. **“Sekin-asta biz foydalananadigan ko‘p narsalar “raqamlashib” ketdi”. Mazkur gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z nima uchun qo‘shtirnoqqa olingan deb o‘ylaysiz?** (Bu savol tinish belgining qo‘llanishini tushunishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu gap mazmunida anglashilgan ma’noni tushunib javob berishi lozim. Bu yerda “raqamlashib” ko‘chma ma’no qo‘llanganligi, bu gap orqali raqamli texnologiyalar ko‘payganligiga ishora borligini anglash mumkin.)

5. **“Hatto his-tuyg‘u ham raqamli ko‘rinishda mavjud” deganda nima nazarda tutilgan?** (Bunda o‘quvchilardan ushbu jumla orqali nimaga ishora qilinayotganligini mantiqan tushunishib aytishlari talab qilinadi, ya’ni kundalik hayotida duch keladigan hamda xabarnomalarda foydalaniладigan “hisbelgi”lar nazarda tutilayotganligini aytib olishi lozim.)

6. **Dunyoning raqamlashishi natijasida “insoniylikni yo‘qotib qo‘ymasmikanmiz?” degan savolga siz qanday javob berasiz?** (Bu o‘quvchini tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradigan savol bo‘lib, o‘quvchilar matndan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, munosabat bildirishi lozim.)

7-sinf darsligida “Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusi berilgan. Berilgan topshiriq asosida o‘quvchi ijtimoiy tarmoqlarga oid rasmlar asosida quyidagi savollarga og’zaki javob berishi hamda yozma ravishda daftarga nomlarini yozish lozim.

1. Qaysi belgilarni sizga tanish? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz?
2. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga ta’siri haqida fikr bildiring.
3. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda muloqot odobi deganda nimani tushunasiz?

4. Siz ham biror ijtimoiy tarmoqdan foydalanasizmi? Javobingizni izohlang.

Ma’lumki, media madaniyati shakllanmagan insonlar internet orqali uzatilayotgan har qanday ma’lumot domiga tushib, ongi va dunyoqarashining sustligi bilan ajralib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlar ommaviy axborot vositalaridan (televide niye, radio, gazeta va jurnallar) tashqari, juda ko‘p manbalardan katta hajmdagi ma’lumotlarni oladi. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning mediasavodxonlik,

har xil turdagи ommaviy axborot vositalarini aniqlash va ular yuborayotgan xabarlarni tushunish qobiliyatları shakllanadi.

Uyali aloqa vositalaridagi turli yozishmalarga nazar tashlasak, juda ko‘p imloviy, ishoraviy va uslubiy xatoliklar uchraydi. Bu esa yoshlar orasida savodxonlik madaniyatining susayishiga olib kelmoqda. Yana bir topshiriqda o‘quvchilar xatoliklarga yo‘l qo‘ymasliklari va adabiy til me’yorlariga amal qilishlariga doir suhbatlarni kuzatishlar asosida to‘g’rilab yozadilar.

Yana bir matn orqali bugungi internet olamidagi mulohazasiz insonlar haqida yozilgan. Ushbu matn o‘quvchilarning muloqot imkoniyatidan to‘g’ri foydalanishga, irodali bo‘lishga, teran fikrlashga o‘rgatadi.

5-sinf darsligida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning algebra faniga asos solgani haqida matn berilgan. Matn ichidagi algoritm, kompyuter, protsessor, dastur, mobil aloqa apparatlari kabi so‘zlarni izohlashga oid topshiriq berilgan. Darslikda “Internetga oid terminlar” mavzusi orqali “Internet olamida”, “Kompyuterning “miya”si” nomli matnlar ham berilgan. Ushbu matnlarni bajarish orqali o‘quvchilar “Telegram”, “Instagram”, “Tvitter” (“Twitter”) tarmoqlari, “Feysbuk” (“Fasebook”) dasturining Mark Sukerberg tomonidan yaratilgani haqidama lumotga ega bo‘ladilar. 328-mashqdagi akkaunt, bloger, avatarka, fayl, mem, xeshteg, veb-sahifa, vebinar, dayjest kabi so‘zlarning izohini ko‘chirish orqali o‘quvchilar hayotimizdagi eng ko‘p qo‘llanilayotgan atamalarning ma’nosini bilib oladilar hamda bugungi kunning eng dolzarb savollariga javob berishlari mumkin.

Xullas, tilshunoslikda raqamli va axborot texnologiyalariga oid tushunchalarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki o‘z qiziqishlari doirasida bunyodkorlik, ijodkorlik qobiliyatini o‘zlashtiradi, raqamli texnologiyalarning sir-asrorini anglaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirgan o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlari doirasida aniq va asosli ma'lumotlarni qidirib topib, o‘z qarashlari asosida yangiliklar (ixtiolar) yaratishga qodir bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchi yoshlarda bu ko‘nikmalarini rivojlantirib borish muhim sanaladi. Raqamli texnologiyalar barqaror iqtisodiyotni qurishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu bois raqamlashtirish va raqamli transformatsiya O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: O’zbekiston, 2017.
3. qonun hujjatlari to’plami. 2017-yil.
4. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun. – G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2020.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
6. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
7. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti.
8. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O’zbek tili o’qitish metodikasi. – T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
9. Mahkamov U., Turdiqulov E., Qosimova Sh., Ismatova M. Ta’lim jarayonida o’quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. – “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent – 2015.
10. G.M.Raxmonqulova. “Raqamlashtirish barqaror rivojlanish omili sifatida” - Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2021, 6(142)

"RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA"

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami

| | Eschanov Usman Qutlimuratovich | |
|-----|--|---------|
| 28. | CREATIVE INSTRUCTIONAL STRATEGIES, MODELS AND METHODS FOR LANGUAGE LEARNERS <i>Abdurakhmanova Nargiza, Ergasheva Sevara</i> | 155-158 |
| 29. | ҚОЗОҒИСТОНДА ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИ МАСАЛАЛАРИ <i>Мадалиев Я.Х.</i> | 159-160 |
| 30. | МИЛЛИЙ МАКТАБЛАРДА ОНА ТИЛИНИГ МАВҶЕИНИ ОШИРИШ, ҚЎЛЛАНИШ ДОИРАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ МАСАЛАСИ <i>Сайфуллаев Даимжан</i> | 161-163 |
| 31. | ЯНГИЛАНГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ҚОЛИПЛАШТИРУВЧИ БАҲОЛАШНИНГ УСУЛЛАРИ <i>Бабашов Оринбасар</i> | 164-169 |
| 32. | ИККИНЧИ ТИЛИНИ ЎРГАНИШДАГИ ХАТО ВА ҚИЙИНЧИЛИКЛАР ПСИХОЛИНГВИСТИК МУАММО СИФАТИДА <i>Ахмедова Муяссар Хадиматовна, Исмоилов Жавоҳир Алишер ўғли</i> | 170-174 |
| | III SHO'BA. RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA TIL VA ADABIYOTNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIATLARI | |
| 33. | ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ НЕЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ <i>Скубневская Т.В., Таджибаев М.С.</i> | 175-185 |
| 3. | O'ZBEK TILI TEZAURUSINI YARATISHDA LEKSIK BIRLIKLARNING IFODALANISH <i>Abduraxmonova Nilufar, Holiyorova Gulruhsor</i> | 186-192 |
| 35. | O'ZBEK TILINI O'QITISHDA TA'LIM VOSITALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI <i>Yuldasheva Shaxlo Shukurlaevna</i> | 193-199 |
| 36. | ANGLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI <i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna</i> | 200-204 |
| 37. | O'ZBEK↔TURK TARJIMON DASTURI UCHUN LEKSIKOGRAFIK MANBALAR TAHLILI <i>Abjalova Manzura Abdurashetovna, Egamberdiyeva Yulduzzon Yuldoshal qizi</i> | 205-211 |
| 38. | O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI BAHOLASHDA TIL TA'LIMI O'QITUVCHISIGA YORDAMCHI VOSITALAR <i>Kutlimuratova D.A.</i> | 212-219 |
| 39. | ONA TILI DARSLARIDA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH <i>Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna</i> | 220-225 |
| 40. | INTEGRATING DIGITAL COMPETENCIES IN LEARNING ENGLISH AT HIGHER SCHOOL <i>Meliqo'ziyeva Gulchiroy</i> | 226-231 |
| 41. | МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУПП <i>Базаров Суннатилло Мехриқулович</i> | 232-239 |
| 42. | THE INFLUENCE TECHNOLOGY ON DIGITAL LISTENING AND | 240-243 |